

## HAZRATI ALI ROZIYALLOHU ANHUNING FAZILATLARI

*Dinora Eshboyeva,*

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
Islomshunoslik yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi  
[dinoraeshboyeva23@gmail.com](mailto:dinoraeshboyeva23@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maqolada xulofai roshidinlarning so‘ngisi, “Abu Turob” laqabi bilan tanilgan, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning kuyovlari va amakivachchasi bo‘lmish Ali roziyallohu anhuning hayotlari va sifatleri aks ettirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ali roziyallohu anhu, “Haydar”, “Abu Turob”, “Abul Xasan”, “Murtazo”, “Abu Sibtayn”, Xaybar g‘azoti, xulofai roshidinlar.

### CHARACTERISTICS OF HAZRAT ALI RAZIALLAH ANHU

**Annotation:** The article describes the life and qualities of Ali, the son-in-law and cousin of the Prophet, peace and blessings of God be upon him, the last of the successors of the Rashidun, known by the nickname “Abu Turab”.

**Key words:** Ali, may Allah be pleased with him, “Haydar”, “Abu Turab”, “Abul Hassan”, “Murtaza”, “Abu Sibtain”, Khyber Ghazat, Khulafai Rashidin.

Ali roziyallohu anhu islomga yosh bolalar ichida birinchi bo‘lib kirgan shaxs, Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning jiyanlari va kuyovlari, jannat bashorati berilgan 10 sahobiydan biri va xulofai roshidinlarning oxirgisidir. Nasab ilmi ulamolari Ali ibn Abu Tolibning to‘liq nasablarini quyidagicha keltirishadi: Ali ibn Abu Tolib ibn Abdumutolib ibn Hoshim ibn Abdumannof ibn Qusoy ibn Kilob ibn Murra ibn Ka‘b ibn Lu‘ay ibn G‘olib ibn Fehr ibn Molik ibn Nazr ibn Kinona. Ali ibn Abu Tolibning onalari Fotima binti Asad, akalari Tolib, Aqiyl, Jafar r.a va opalari Fohita va Jumona bo‘lgan. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam 30 yoshlarida Makkada Ali roziyallohu anhu dunyoga kelganlar. “101 sahobiy” asarida bu haqida quyidagi noyob ma‘lumotlar keltiriladi: bu voqea hijratdan 23 yil avval, rajab oyining 13 kuni Makka shahrida ro‘y berdi, milodiy hisobda bu 559-yil 17-martga to‘g‘ri keladi.

Ali ibn Abu Tolibning 6 yoshgacha bo‘lgan bolalik yillari otalari Abu Tolibning uyida o‘tadi. Ammo Abu Tolib Quraysh qabilasining boshlig‘i bo‘lishiga qaramasdan, kambag‘allikda kun kechirardi. Chunki u qabila boshliqligiga boyligi bilan emas, balki aql-zakovati bilan erishgan edi. U kishi olti yoshligida Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam Ali ibn Abu Tolibni o‘z qaramog‘iga oldi va shu ondan boshlab u kishi Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning uylarida tarbiya topadi.

Ali r.a ga “Haydar”, “Abu Turob”, “Abul Xasan”, “Murtazo” va “Abu Sibtayn” kabi bir nechta kunya va laqablar berilgan. Hazrati Ali r.a yosh bolalar ichida islomni birinchi qabul qilgan shaxs bo‘lib, islom dinini yoyishda ko‘plab jasoratlar ko‘rsatgan. Xususan, Makka mushriklari Muhammad s.a.v ni o‘ldirmoqchi bo‘lganlarida ul zotning to‘shaklariga yotib, mushriklarni chalg‘itib turadi. Bu jasorat Ali r.a ni qanchalik mard va Muhammad s.a.v ga muhabbati baland inson bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ba’zi mufassirlar “Baqara” surasidagi:

**“Odamlar orasida Allohning roziligini istab, jonini beradigani ham bor. Alloh bandalariga mehribon zotdir” (Baqara, 207)** oyati karima Ali r.a haqida nozil bo‘lganligini ta’kidlashadi. Bundan tashqari, Ali r.a o‘sha kuni Payg‘ambar s.a.v tayinlagan omonatlarni o‘z egalariga topshiradi. Bu esa u kishining omonatdor ekanligini ham anglatadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Ali r.a ko‘plab janglarda Payg‘ambarimiz s.a.v ga yaqindan yordam berganlar. Xususan, “Badr”, “Uhud”, “Handaq” va boshqa ko‘plab g‘azotlarda. Alloh taolo Ali r.a orqali ko‘plab jangda musulmonlarga fath bergan. Xaybar g‘azotida Ali r.a ning fazilati haqidagi hadisni keltirib o‘tamiz.

Salama ibn al-Akva r.a dan rivoyat qilinadi:

**“Xaybarda Ali Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan ortda qolgan edi. Uning ko‘zi og‘rib qolgan edi. U “Men ortda qolar ekanmanmi!?” dedi-da , Nabiy sollallohu alayhi vasallamga yetib oldi. Alloh fath qilgan tongning kechasidan oldingi oqshom chog‘ida Rasulullohu sollallohu alayhi vasallam:**

**“Albatta, ertaga bayroqni Alloh va Uning Rasuli yaxshi ko‘radigan kishi olur. Alloh unga fath berur”, dedilar.**

**Qarasak, Ali turibdi. Uni (tanlashlarini) kutmagan edik. “Mana, Ali”, deyishdi. Bas, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bayroqni uga berdilar. Alloh unga fath berdi”.**

Tabuk g‘azotida ham Ali r.a Rasululloh s.a.v uchun yaqin inson bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, quyidagi hadisi sharifda bu haqida shunday deyiladi:

Sa’d ibn Abu Vaqqos roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

**“Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Tabuk urushida Ali ibn Abu Tolibni o‘z o‘rinlariga qoldirdilar. Bas, u:**

**“Ey Allohning Rasuli meni ayollar va bolalar ichida qoldirasizmi!?” dedi.**

**“Horun Musoning o‘rnida bo‘lganidek sen mening o‘rnimda bo‘lishga rozi bo‘lmaysanmi!? Faqat mendan keyin nabiy yo‘q, xolos”, dedilar”.**

Muso alayhissalom Banu Isroildan tanlangan insonlarni olib, Alloh taolo bilan roz aytishgani ketayotganlarida Horun alayhissalomni o‘rinlariga tashlab ketadi. Xuddi shunday Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ham o‘z o‘rinlariga Ali ibn Abu Tolibni tayinlab ketadilar. Ammo bitta farqli jihati Payg‘ambarimiz s.a.v dan so‘ng nabiy

bo‘lmadi. Ali ibn Abu Tolibni o‘z o‘rinlariga tayinlashlari u kishi uchun ulkan maqom edi va u kishidan boshqa hech kim bu maqomga erishmagan.

Islom uchun qilingan ko‘plab janglarda va sulhlarda hazrati Ali r.a ham sa’y-harakatlarni amalga oshirgan. Nafaqat Rasululloh s.a.v davrlarida, balki dastlabki uch xalifa davrlarida ham islom dinining yoyilishida jonbozlik ko‘rsatgan. U kishi Abu Bakr, Umar, Usmon r.a davrlarida ham bosh qozilik lavozimida faoliyat yuritgan va ko‘plab ishlarda xalifaga maslahatchi bo‘lgan. Xususan, hijriy yil hisobini amalga oshirishda ham Umar r.a va boshqa sahobalar Ali r.a ning fikrlariga qo‘shiladilar va hijriy yil hisobini hijrat qilingan yildan boshlaydilar. Hattoki, ushbu yil qaysi oydan boshlanishi masalasida ham Ali r.a ning fikrlarini ko‘pchilik ma’qullab muharram oyidan boshlaydilar. Hazrati Ali ibn Abu Tolib karramallohu vajhahu (umrlarida biror marta ham ibodat uchun Alloh taolodan boshqaga yuzlanmagani uchun “Alloh yuzini mukarram qilsin” deb duo qilinadi) o‘zlarining butun umrlarini islom ximati uchun sarfladilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 22-juz. Usmon va Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhumo – T.: “Hilol-Nashr” 2021.
2. 101 ulug‘ sahobiy. Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2017.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. 1-juz – T.: “Hilol nashr” 2021.
4. Shayx Muahmmad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsihi hilol. “Hilol-nashr” – 2018.
5. Ahmad Muhammad. Asharai mubashshara. “Azon kitoblari”-2021.
6. Alixonto‘ra Sog‘uniy. Tarixi Muhammadiy.
7. <https://islom.ziyouz.com/siyrat/xalifalar/xulofoi-roshidiyn-kitobidan>